

UO'T: 634.232:631.544

**HIMOYALANGAN YERDA GILOS NAVLARINING GUL
KURTAKLARINI TOQALASHNING HOSIL KO'RSATKICHLARIGA
TA'SIRI.**

Yusupov Sardor Abdrimovich

*Akademik. M.Mirzaev nomidagi bog 'dorchilik, uzumchilik va vinochilik ilmiy
tadqiqot instituti tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Maqolada himoyalangan yerlarda yetishtirilgan gilos navlari gul kurtaklarini 3 xil ya'ni 30, 50, 70 % ini toqalash orqali hosil ko'rsatkichlari (bir dona meva vazni, bir tupdagi xosil, hosildorlik)ga ta'siri bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Himoyalangan yer, gilos, nav, meva, toqalash, gul kurtak, meva vazni, xosil, hosildorlik.

Kirish. Hozirgi kunda dunyo bo'yicha gilos yetishtirish bilan bir qatorda ularni turli iqlim muhitlarida yetishtirish bo'yicha yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlarining samaradorligini oshirishga, ishlab chiqarishda yuqori sifatli, mevasi erta pishadigan ochiq hamda himoyalangan yerlarda gilos yetishtirish imkonini bermoqda.

Mevali daraxtlar odatda ko'p gullaydi, ularning barchasi mevaga aylana olmaydi. Daraxtdagi gullar soni juda ko'p bo'lib, daraxtning turiga va o'lchamiga qarab, har bir gilos daraxtida 50 000 tagacha va shaftoli daraxtida 20 000 tagacha gul bo'lishi mumkin. Urug'li meva turlarida yaxshi sifatli hosilni olish uchun gullarning 7 foizi meva berganda yaxshi hosil beradi. Danak mevali turlari yuqori darajada changlanishni talab qiladi. Shaftolida 25% gullar meva berganda yetarli hosil olinadi, gilos esa 25-40% meva tugish nisbati bilan yaxshi hosil beradi[2,4].

Daraxtlarning meva berishiga bir qancha omillar ta'sir ko'rsatadi, ular orasida daraxtning oziqlanishi, yorug'lik va harorat kabi ekologik omillar mavjud. Ammo ba'zi omillar hal qiluvchi ahamiyatga ega, masalan, gul kurtaklari

shakllanishini yozda sodir bo'ladir va daraxtdagi mevalar soniga uzviy bog'liqdir. Meva va rivojlanayotgan urug'lar gibberellin ishlab chiqarish orqali gul kurtaklarining shakllanishini to'sqinlik qilishi hamda keyingi mavsumda gullar sonini kamaytirishi mumkin [1,3].

Materiallar va uslublar. Olib borilgan tadqiqotlar «Программа и методика сортоизучения плодовых, ягодных и орехоплодных культур» (Oryol 1999) metodikasi asosida o'tkazildi.

Tadqiqot natijalari. Himoyalangan erlarda gilos daraxtlarida gul kurtaklarini turlicha darajada toqalashning meva sifati va hosildorlikka ta'siri o'rganildi. Tadqiqotlardan olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, gul kurtaklarini toqalash mevalarning vazni va sifatini yaxshilagan bo'lsa-da, hosildorlikka turlicha ta'sir ko'rsatdi.

“Bahor” navida nazorat (toqalanmagan) variantimizda daraxtlarda jami 1671 ta gul kurtaklari shakllangan bo'lib, meva vazni o'rtacha 7,1 g ega bo'ldi. Bu holatda bir tupdan olinadigan umumiy hosil 10,4 kg, gektaridan esa 17,3 t hosil yetishtirildi. Gul kurtaklarini 30 % toqalash varianti qo'llanganda, daraxtda 1170 ta gul kurtagi saqlanib qoldi. Natijada, bir dona meva o'rtacha 9,2 g ni tashkil etdi. Hosil miqdori esa biroz pasayib, bir tupda 9,6 kg, gektaridan esa 16,0 t hosil olindi. Gul kurtaklar 50 % toqalanganda daraxtda atigi 835 ta gul kurtagi saqlanib qoldi. Mevalar sonining kamayishi hisobiga ularning o'sishi jadallashdi va natijada o'rtacha meva vazni 10,5 g gacha ko'tarildi. Bu nazorat variantiga nisbatan deyarli 1,5 baravar kattalashuv demakdir. Shu bilan birga, umumiy hosil miqdorida sezilarli kamayish kuzatildi: bir tupdagi hosil 9,4 kg, gektaridan esa 15,7 t ni tashkil etdi. Eng ko'p gul kurtaklar olib tashlangan variantimizda ya'ni 70 % toqalanganda daraxtda atigi 502 ta gul kurtagi qoldi. Bunday sharoitda mevalar juda yiriklashib, o'rtacha massasi 11,1 g ga etdi, bu eng yuqori natija hisoblanadi. Ammo hosil hajmi ancha kamayib ketdi: bir tupdagi hosil 7,0 kg, gektaridan esa bor-yo'g'i 11,7 t ni tashkil etdi.

1-jadval

Gilos gul kurtaklarini toqalashning hosil ko'rsatkichlariga ta'siri, ekish sxemasi

3x2 m.

T/r	Nav nomi	Variantlar	Gullar soni, dona	Bir dona meva vazni, g	Bir tupdagi xosil, kg	Hosildorlik, t/ga
1.	Bahor	Nazorat, toqalanmagan	1671	7,1	10,4	17,3
		Toqalash 30%	1170	9,2	9,6	16,0
		Toqalash 50%	835	10,5	9,4	15,7
		Toqalash 70%	501	11,1	7,0	11,7
2.	Royal tioga	Toqalanmagan	2276	8,5	11,5	19,1
		Toqalash 30%	1593	10,1	10,9	18,2
		Toqalash 50%	1138	11,6	10,7	17,9
		Toqalash 70%	683	11,9	8,0	13,3

“Royal tioga” navida o‘tkazilgan tajribalar toqalanmagan variantda yuqori ko‘rsatkichlarni qayd etdi. Xususan, bir tup daraxtdagi gul kurtaklari soni 2276 ta bo‘lib, shakllangan mevalarning o‘rtacha vazni 8,5 g ni tashkil qildi. Bir tupdan olingan umumiy hosil 11,5 kg ga teng bo‘lib, gektaridan 19,1 tonna hosil olish imkonini berdi. Gul kurtaklarini 30 % miqdorda toqalash natijasida tupda 1593 ta gul kurtagi qoldi. Mevalar yiriklashib, ularning o‘rtacha vazni 10,1 g ni tashkil qildi. Bu variantda bir tupdan olingan hosil 10,9 kg bo‘lib, gektaridan 18,2 tonna mahsulot etishtirildi. Toqalash 50 % amalga oshirilgan variantda esa daraxtda 1138 ta gul kurtagi qoldi. Bu sharoitda mevalar eng yirik bo‘lib shakllandi, o‘rtacha meva vazni 11,6 g gacha oshdi. Shu bilan birga, bir tup hosili deyarli o‘zgarmadi va 10,7 kg ni tashkil etdi. Hosildorlik esa gektaridan 17,9 tonnani tashkil qildi. Bu esa “Royal Tioga” navida kurtaklarning yarmini toqalash meva sifatini maksimal darajada oshirish bilan birga, umumiy hosildorlikning yuqori darajada saqlanishini ta’minlaganini ko‘rsatadi. Gul kurtaklarini 70 % ini toqalashda esa (683 ta kurtak qoldi) mevalarning yirikligi eng yuqori darajaga chiqdi va o‘rtacha vazni 11,9 g ni

tashkil etdi. Biroq hosil miqdori keskin kamaydi: bir tup hosili 8,0 kg, gektaridan esa 13,3 tonna hosil olindi(1-jadval).

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Royal Tioga navida gul kurtaklarni 50 % toqalash mevalarning yirikligi va sifatini oshirib, hosildorlikni deyarli kamaytirmadi. Aksincha, 70 % toqalashda hosil sezilarli darajada pasaytirdi. Gul kurtaklarini toqalash har ikki navda ham mevalarning yirikligi va sifat ko'rsatkichlarini yaxshiladi. Bahor navida 50 % toqalash optimal natija berib, meva vazni oshdi, hosildorlik esa deyarli saqlanib qoldi. 30 % toqalashda hosildorlik kamaymadi lekin meva sifatiga unchalik ta'sir ko'rsatmadi. 70 % toqalashda esa hosildorlik sezilarli kamaydi. Royal Tioga navida 50 % toqalash yuqori samarali bo'lib, mevalarning vazni 12 g gacha etdi, hosildorlik esa yuqori darajada saqlanib qoldi. himoyalangan sharoitlarda gilos daraxtlarida gul kurtaklarini 50 % toqalash mevalarning yirikligini oshirish, sifatini yaxshilash va hosildorlikni barqaror saqlashda optimal agrotexnik usul sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Costa G., Blanke M. M., Widmer A. Principles of thinning in fruit tree crops- needs and novelties //EUFRIN Thinning Working Group Symposia 998. – 2012. – P. 17-26.
2. Costa G., Vizzotto G. Fruit thinning: Advances and trends //Horticultural reviews. – 2019. – T. 56. – P. 134-167.
3. Costa, G.; Botton, A.; Vizzotto, G. Fruit Thinning: Advances and Trends. In Horticultural Reviews; Warrington, I., Ed.; John Wiley & Sons, Inc.: Hoboken, NJ, USA, 2018; 189–193 p.
4. Seehuber C. et al. Selective mechanical thinning for crop load management (CLM) of fruit trees //X International Symposium on Integrating Canopy, Rootstock and Environmental Physiology in Orchard Systems 1058. – 2012. – P. 405-410.
5. Wojcik P., Wojcik M. Effect of boron fertilization on sweet cherry tree yield and fruit quality //Journal of plant Nutrition. – 2006. – T. 29. – №. 10. – P. 1755-1766.